

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

- 1. Mustaqillik yillarida ilm-fanni rivojlanishi.**
- 2. "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi.**
- 3. Ta'limning milliy modelini shakllanishi, rivojlanishi va sohadagi muammolar.**
- 4. Oliy ta'lim sohasida qabul qilingan qonunlar va ularda belgilangan vazifalar.**
- 5. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi: yutuqlar va kamchiliklar**



Ta'lim to'g'risidagi yangi qonunning asosiy farqlari haqida qisqacha ma'lumot:

- **Birinchidan**, ta'lim olish shakllarining tasnifi kengaytirildi:
- Ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy);
- Nazariy - ta'lim tashkiloti negizida, amaliy - ta'lim oluvchining ish joyida birga olib boriladigan dual ta'lim;
- Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
- Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun inklyuziv ta'lim;
- Eksternat tartibidagi ta'lim - o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestasiyalaridan o'tish;
- Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

- ***Ikkinchidan***, Vazirlar Mahkamasi, ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (ta'lim inspeksiyasi), prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi, shuningdek soha vazirliklari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari tafsilotlari bilan aniqlashtirildi.
- ***Uchinchidan***, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining huquqiy maqomiga ko'proq e'tibor qaratilgan:
- Ta'lim tashkilotlari – ularni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish, Ustavga talablar;
- Pedagogik xodimlar, ta'lim oluvchilar, ularning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari – huquqlar, majburiyatlar va kafolatlar bo'yicha. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari belgilangan
- ***To'rtinchidan***, davlat ta'lim standartlari va talablari, o'quv jarayoniga o'quv rejalari va dasturlarini, ta'lim sohasiga eksperimental va innovasion faoliyat ta'limni joriy etish bilan bog'liq masalalar tartibga solingan. O'qishga qabul qilish, jumladan maqsadli qabul qilish mexanizmi bayon etilgan

Beshinchidan, davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish dastaklari reglamentlangan:

A) birinchilarga quyidagilar kiradi:

Nodavlat ta'lim tashkilotlarining faoliyatini lisenziyalash – lisenziyalar ta'lim inspeksiyasi tomonidan cheklanmagan muddatga, har bir ta'lim turi uchun alohida beriladi;

Ta'lim tashkilotlarini attestasiyadan va davlat akkreditasiyasidan o'tkazish – ta'lim inspeksiyasi tomonidan 5 yil muddatga amalga oshiriladi. Bunda nodavlat ta'lim tashkilotlari lisenziya olingan kundan e'tiboran 5 yil davomida akkreditasiyadan o'tgan deb hisoblanadi, bu muddat tugagach, ushbu attestasiya va akkreditasiyadan o'tkaziladi. Davlat akkreditasiyasidan o'tgan tashkilotlar maxsus reestrda kiritiladi, bu haqdagi ma'lumotlar ta'lim inspeksiyasining saytiga joylashtiriladi;

Xorijiy davlatda 1992 yil 1 yanvardan keyin olingan ta'lim to'g'risidagi hujjat tan olish, shuningdek ta'lim sohasidagi rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish. Tan olish va apostil qo'yish ham ta'lim inspeksiyasi vakolatiga kiradi;

B) ta'lim inspeksiyasi quyidagilarga haqli:

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini nazorat qilish va monitoringini amalga oshirish – biznes-ombudsmanni xabardor qilgan holda;

Ta'lim tashkilotlari tomonidan berilayotgan ta'limning mazmuni va sifati ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga nomuvofiqligini aniqlagan hollarda – ularni bartaraf etish yuzasidan ularga taqdimnomalar kiritish. Taqdimnoma bajarilmagan taqdirda - ta'lim tashkilotining davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikatini bekor qilish

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli

1. Shaxs
2. Davlat va jamiyat
3. Uzlaksiz ta'lim
4. Uzlaksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish printsiplari
5. Uzlaksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari

6. Uzlaksiz ta'lim tizimi va turlari.

Maktabgacha ta'lim.

Umumiy o'rta ta'lim.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

Oliy ta'lim Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash maktabdan tashqari ta'lim

7. Kadrlar tayyorlash tizimida fan

8. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli

Shaxs

- Kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi

Davlat va jamiyat

- Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishni kafillari

Uzluksiz ta'lim

- Malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat va ta'lim standartlarini kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi

Fan

- Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg'or pedagogik axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi

Ishlab chiqarish

- Kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularni tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayoninig qatnashchisi

Ta'lim yo'nalishida murojaatnomada belgilangan vazifalar quyidagicha bo'ldi:

Maktab bitiruvchilarining oliy ta'limga qamrovi 25 foizdan 50-60 foizga etkaziladi;

OTM davlat granti asosida qabul ikki barobar oshiriladi, shuningdek, qizlar uchun alohida davlat grantlari joriy etiladi; O'qishga kirish soddalashtiriladi;

Ona tili bo'yicha bilimlarni baholashning milliy test tizimi paydo bo'ladi;

Mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar soni ikki baravarga kamayadi;

Oliy ta'lim o'quv jarayonida kredit-modul tizimi joriy etiladi;

Pedagogik ta'limning 6ta yo'nalishi bo'yicha o'qish muddati 3 yil etib belgilanadi;

10ta OTM o'zini-o'zi moliyalash tizimiga o'tib, kamida 5ta OTM transformasiya qilinadi

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni bog'chalarga qamrab olish ko'rsatkichini 60 foizga etkazish ko'zlanmoqda. Shu bilan birga, 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimini joriy qilish davom ettiriladi. Shu maqsadda 130 mlrd so'm mablag'ajratiladi. 2020 yilda 36ta yangi maktab qurilib, 216tasi kapital ta'mirdan chiqariladi. Ushbu ishlarga esa 1,7 trln so'm mablag'sarflanishi rejalashtirilgan.

Joriy yilda 55ta xususiy maktab tashkil etilishi, ularning respublikadagi umumiy soni 141taga etkazilishi bildirildi. Yuqori malakali o'qituvchilar maoshini yanada oshirish masalasi davom etadi. Professional kasb-hunar ta'limda yangi tizim yo'lga qo'yiladi: 340ta kasb-hunar maktabi, 147ta kollej va 143ta texnikum tashkil etiladi. Milliy malaka tizimi ishlab chiqiladi, natijada 9000ga yaqin kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlanadi.